

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Abdualiyev

Tabiiy-geografik omillarning aholi joylanishiga ta'siri bo'yicha ayrim xulosalar (Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida) 101

M.X.Otamirzayeva

Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari 108

 ILMIY AXBOROT

M.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov

Sintaktik-stilistik figuralar konvergentsiyasi 115

A.A.Mirzayev

Ibn Al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari 119

J.J.Shodiyev

Inson qadrini yuksaltirish borasida Abdulqodir Bedilning falsafiy g'oyalari 125

M.И.Темирова

F.M.Dostoevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" romanida ota va farzand munosabatlari 130

A.M.Mamajonov

Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari 135

P.Sh.Kaxramonova

Badiiy asar tili va ekolingvistika (O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani misolida) 141

J.U.Umaraliyeva

Zavqiy she'riyatida antroponimlarning qo'llanilishi 144

D.S.Ergasheva

O'zbek xalq ertaklari asosida vatanparvarlik va do'stlikka o'rgatishning pedagogik strategiyasini takomillashtirish 148

D.X.G'aniyeva

"Ta'lim" mikromaydonining paremiologik birliklari 153

X.X.Abduraxmonov

Maktab o'quvchilarning yengil atletika mashqlari orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish 157

G.T.Hojikarimova, Sh.Usarova

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kompetensiyasini rivojlantirish usullari (tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish fani misolida) 161

O.Q.Abdullayev

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari 164

J.Sh.Nazarov

Pedagogik OTM talabalarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish hamda yuksaltirishning amaliyotdagi holati 168

Sh.F.Latipov

Madaniy kontekstda lakunaga yondosh hodisalar 173

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova

Siddiq Mo'min ijodida mehr konseptining ifodalanishi 175

Sh.M.Robilova

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik va pedagogik ahamiyati 179

M.Sotvoldiyeva, G.Mirodiljonova

Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy usullar 183

R.R.Abdusattorov

Bolalarni suzishga o'rgatishda tayyorlov guruhining nazariy va amaliy asoslari 186

H.Arabboyev

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish texnologiyasi 192

F.Xalikov

Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari 197

M.I.Yusupova

Rus tilidagi ommaviy axborot vositalarida "Vatanparvarlik" konseptining ifodalanishi 204

INSON QADRINI YUKSALTIRISH BORASIDA ABDULQODIR BEDILNING FALSAFIY G'OYALARI

ФИЛОСОФСКИЕ ИДЕИ АБДУЛА КАДИРА БЕДИЛЯ ОБ УЛУЧШЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ

PHILOSOPHICAL IDEAS OF ABDUL QADIR BEDIL ON IMPROVING HUMAN VALU

¹Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich¹O'zbekiston milliy universiteti doktoranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada inson qadri va huquqlari umumbashariy, milliy davlat va huquq tushunchalarini o'zida mujassamlashtirishi hamda falsafani bilishdan maqsad olamni anglash, g'oyaviy, ruhiy barkamollikka erishish va oqilona yashash qonunlarini o'rganish ekanligi haqida bayon qilingan. Bedilning antropologik ta'limoti tabiati va yo'nalishi bo'yicha gumanistikdir. Inson joni murakkab mavjudot emas, yetarlicha nozikligi uchun u barcha narsalarni qamrab olishi tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье утверждается, что человеческое достоинство и права воплощают в себе концепции всеобщности, национального государства и права, а целью изучения философии является познание мира, достижение идейного и духовного совершенства, изучение законов рациональной жизни. Антропологическое учение Бедилia гуманистично по своей природе и направленности. Человеческая душа не является сложным существом, проанализировано, что она охватывает все сущее благодаря своей тонкости.

Abstract

In this article, it is stated that human value and rights embody the concepts of universality, national state, and law, and that the purpose of learning philosophy is to understand the universe, to achieve ideological and spiritual perfection, and to study the laws of rational living. Bedil's anthropological teaching is humanistic in nature and direction. The human soul is not a complex being, it has been analyzed that it encompasses all things due to its subtlety.

Kalit so'zlar: *Bedil, Inson qadri, ma'naviy-huquqiy meros, inson huquqlari, barqaror taraqqiyot, ma'naviy yetuklik.*

Ключевые слова: *Бедил, Человеческое достоинство, духовно-правовое наследие, права человека, устойчивое развитие, духовная зрелость.*

Key words: *Bedil, Human dignity, spiritual and legal heritage, human rights, sustainable development, spiritual maturity.*

KIRISH

Insonparvarlik axloqiy tamoyillar orasida eng qadimiy va eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Insonparvarlik insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalari, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr-qimmatini, uning baxtli bo'lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga bo'lgan ishonch. Insonparvarlik umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi. Millatning, xalqning hatto shaxsning o'z insoniy burchi va mas'uliyati uchun kurashishi ham insonparvarlikning ustuvor maqsadlaridan hisoblanadi. Shu bois biz qurayotgan erkin fuqarolik jamiyati insonga nafaqat mehr-muhabbat va izzat-hurmat ko'rsatishni asosiy tamoyil qilib olgan, balki shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo'lgan haqiqiy insoniy shartsharoitlarni yaratishni ham o'z oldiga oliy maqsad qilib qo'ygan.

Qadr-qimmat tushunchasi inson o'z qadrini, bu dunyoda uning hayoti oliy qadriyat ekanligi, o'z shaxsi oldida o'zi mas'ul ekanligini anglash uchun xizmat qiladigan tuyg'u. U nomus, g'urur tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, insonning o'z qadrini har qanday holatda ham yerga urmasligini taqozo etadi. Qadr-qimmat insonning jamiyatda, kishilar orasida tutgan o'rni, obro'si, hurmati va nufo'ziga aytiladi. Qadr-qimmat o'z-o'zini anglash va nazorat qilishni ifodalaydi. Qadr-qimmat o'z qadrini anglash shakli bo'lib, insonni kamsitadigan, xo'rlaydigan va shu bilan uning boshqa kishilar ko'z o'ngida qimmatini yo'qotishiga sabab bo'ladigan qiliqlarga yo'l qo'ymaydigan to'siq hisoblanadi.

Bedilning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga etibor qaratsak, Bedil dunyoqarashida uning ijtimoiy va insonparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutadi. Ayniqsa u insonni yuksak darajaga ko'taradi, uning irqi, dini va millatidan qat'iy nazar hurmatga sazovor ekanligini uqtirgan. U bir she'rida,

Insonning qiymati emas siym-u zar,
Insonning qiymati ilm ham hunar.
deb fikr bildiradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Aynan bu fikrlar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatiga ega. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahbarligida o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tayotgan xalqimiz salohiyatini yanada baland cho'qqilarga ko'tarish, barcha sohalarda tub islohotlar va ulkan yangilishlarni amalga oshirish, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish, yurtimizda eng ilg'or demokratik va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etilayotganligini guvohimiz. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Bizning faoliyatimiz eng muhim konstitutsiyaviy qoidaga – ijtimoiy adolat tamoyilini ta'minlashga qaratilishi shart. Ijtimoiy adolat bu siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashdir".

Darhaqiqat, jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va Yangi O'zbekistonning bosib o'tgan taraqqiyot natijalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan, "Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqqan yettiga ustivor yo'lishdan: inson qadri yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish; adolat va qonun ustivorligi; adolatlil ijtimoiy siyosat yuritish tamoyillariga asoslangan ustivor yo'nalishlar bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Bedil hazratlarini "Abulma'oniyl", "shoirlarning shoiri", "Ma'nolar otasi" deb ulug'lab kelingan. Ustozimiz Jafar Xolmo'minov "Abulma'oniyl ma'naviyati" Bedil hayoti va falsafiy qarashlarida chizgilar" monografiyasida bunga shunday izoh berganlar: "Sharq she'riyati tarixida o'z uslubi va ohangiga ega bo'lgan minglab shoirlar ichidan qo'l bilan sanoqli shoirlargina yuksak maqom va unvonlarga sazovor deb topilgan. Bulardan, jumladan, Rudakiy-Odam ush-shu'aro, ya'ni, shoirlarning Odami (birinchi odam - Hazrati Odamga ishora - J.H.); Unsuriy – Malikushshu'aro, ya'ni, shoirlarning shoiri; Sa'diy - G'azal payg'ambari; Hofiz – Lisonul g'ayb, ya'ni G'ayb tilini bilguvchi, Navoiy-She'riyat mulking sultoni va hokazo.

Ana shu silsilada Mirzo Abdulqodir Bedil ham alohida o'rin tutadi. Aytish mumkinki, Bedil ushbu silsilada nafaqat o'ziga xos o'rin tutadi, balki inson aql-tafakkuri anglashi oson bo'lmagan ma'nolarni kashf etish va ularni eng go'zal, eng nafis tarzda nazm ipiga terib tortiq etishda benazirdir. Bedil nodir, betakror, butunlay yangi fikr va yangi falsafiy, irfoniy va ijtimoiy ma'no-mazmunlari topish va yetkazib berishda alohida qudrat va salohiyatga ega bo'lganligi bois unga keyingi avlodlar "Abulma'oniyl", ya'ni, "Ma'nolar otasi" degan unvon berishgan. Bunday unvon butun insoniyat tarixida faqat Bedilgagina berilgan xolos".

Bu fikrda insonning qadri faqat moddiy boylik emas, balki uning qiymati ilm va hunar bilan belgilanadi deydi. U odamlardagi vatanparvarlik, mehnatsevarlik, vafodorlik, saxiylik, samimiylikni qadrladi, dangasalik, takabburlik, ochko'zlik, yolg'onchilik, makkorlikni qoraladi. Olim o'z ta'limotlarida mehnatkash insonni ulug'laydi. Ayniqsa, u barchani iste'mol mahsulotlari bilan tamomlovchi dehqonlar mehnatiga yuqori baho beradi. Uning fikricha, ular baxt-saodatga erishishi mumkin. Hunari yo'q odam, arzimas va ojizdir.

"Inson mijozida gul ochdi bilim,
Gullasin deb sahro bag'rida bahor".

Bedil xalq hayotini yaqindan o'rgandi, zamon evrilishlari va munofiqliklarini ko'rdi, bularni o'z ijodida aks ettirishga, insonlarni doimo yuksaklikda, ittifoqlik va mehr – muruvvatlikda bo'lishga chaqirdi, bu tuyg'ularni goh oshkor, goh kinoyali, goh tashbehtar vositasida qalblarga yetkazishga harakat qildi.

Bu yerda siz uni qayta o'ynatib, o'ylab ko'rishingiz, bilib olishingiz, zavqlanishingiz yoki afsuslanishingiz mumkin, tanlov sizniki. Xuddi shu tarzda, kelajakni bashorat qilish mumkin, lekin faqat shu yerdan. Bitta mutlaq haqiqat bor, qolganlari esa nisbiydir. U tasvir sifatida (masalan, oynada) kuzatilishi mumkin, lekin faqat bir oz uyg'unlik bilan. Siz o'chirsangiz, u yo'qoladi. Ushbu nazariyaga ko'ra, Olam doimo o'zgarib turadi, doimo rivojlanib boradi, shuning uchun kelajak hozirgidan yaxshiroq bo'lar edi.

"Inson joni murakkab mavjudot emas, yetarlicha nozikligi uchun u barcha narsalarni qamrab oladi. Mavjud dunyoga va unsurlarning xususiyatlariga bog'lanib u o'zining dastlabki holatining

nuqsonlarini ko'rib e'tiborini dunyoda mavjud bo'lgan barcha narsalarning o'zining ta'siriga bo'ysundirishga oid mulohazalarga to'liq qaratadi".

Mutafakkir "Chaxor unsur" she'rida insonning o'zini bilishi, paydo bo'lishi va yanada rivojlanishi insonning o'z taqdirining sohibi bo'la olishiga olib kelishini obrazli tarzda aytadi. Uning bu kontseptsiyasi bugungi kunda ham, barcha faylasuflar buni talab qilgan paytda ham dolzarbdir. Insonning har qanday madaniy faoliyati, har qanday mehnat qurollari ishlab chiqarish atrof-muhitni bo'ysundirishga, oziq-ovqat ishlab chiqarishni ko'paytirishga emas, balki o'zini-o'zi qo'lga olishga qaratilgan edi. Inson o'zini qo'lga olish orqali dunyoda ko'proq yovuzlikni ham yumshatadi.

Bedilning antropologik ta'limoti tabiati va yo'nalishi bo'yicha gumanistikdir. Uning antropologik ta'limoti, umuman, falsafasi kabi, antik davr ma'naviy merosi, so'fiylik va hind falsafasining sintezidir. Xristianlik va hindu dinlarida mavjud bo'lgan zo'ravonlik qilmaslik g'oyasi Bedilga katta ta'sir ko'rsatdi. Bedilning antropologik ta'limotida "Haqiqat", "Tangri", "Sevgi", "zo'ravonlik" kabi o'zaro bog'liq va bir-birini belgilovchi tushunchalar mavjud. Bu fazilatlar, eng oliy va eng go'zal davlat sifatida, faqat inson uchun mavjuddir. Inson borlig'ining uning hayotini belgilab beruvchi asosiy hodisalari ijodkorlik, muhabbat, baxt, o'yin, mehnat, o'lim, hayot mazmuni va hokazolardir. Shuning uchun mutafakkir insonni bu tushunchalarning tashuvchisi sifatida doimo idrok etishga chaqiradi.

Bedil uchun inson ishq va ijodda, bo'lish jarayonida yashayotgan, o'zini bilishga, asl manbasiga qaytishga intiluvchi transsendental mavjudotdir.

Shoir o'zining oliy janob fikr va g'oyalarin, oddiy insonlarga bo'lgan mehr-shavqatini va ayni paytda qabohat va iste'dodining jirkanchligini erkin orzu va xayollar oshig'i ekanligini o'zining "Komde va Mudan" dostonida mahorat bilan tasvirlab beradi. Asardagi raqqosa Komdening go'zalligini va unga oshiq bo'lib qolgan qo'shiqchi va cholg'uchi yosh Mudan sevgi muhabbatini butun sehr-u jozibasi bilan tarannum etgan. Doston haqiqiy sevgi, inson qadri, iste'dodning mislsiz qudrati haqidagi go'zal asar bo'lib, u har bir avlodni shunday yuksak tuyg'ular va ishqqa sadoqat va go'zallikka tan berish sari ilhomlantirayveradi.

Bedil falsafasining markazida inson faoliyati asosiy o'rinni egallaydi. U o'z she'rlarida insonni qadri faqat boyluk bilan emas, balki ilm va hunar olishi orqali uning qiymati bilan belgilanishini e'tirof etib o'tadi.

Ba'zilar kelishar deb ilmu hunar,
Ba'zilar kelishar istab simu zar.
Hayol qasri ichra havas narvonin
Qay poyasidalar, shuncha olishar.

Ustoz Ibrohim Mo'minov ta'kidlab o'tganlaridek, "Bedil ta'kidlashicha, mehnat bilan band bo'lmagan odam marvaridsiz chig'anoqdek befoydadir ipak yoki oddiy matodan qilingan ust bosh kishining xulq atvori, haqiqiy qiyofasini belgilashda asosiy omil bo'la olmaydi, balki insonni axloqiy qiyofasi mehnatda, qilgan ishlarida bilinadi. Ya'ni:

Joma hoh atlas ast, hoh palos,
Shaxs botil nameshavad zi libos.
Ma'niash ravshanu taqaddusi rang,
Az siyohii xat nadorad nang.

Buning ma'nosi, inson o'z axloqiy hatti harakatini hech qachon liboslar orasiga yashirina ololmaydi, ranglar sof, ravshan bo'lgani bilan, inson o'z hatti harakatida ko'rinadi.

Insonparvarlik – insonning qadri, erkinligi, baxt – saodati, teng huquqliligi, to'g'risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushunchadir.

Bedil uchun insonparvarlik inson haqiqiy taraqqiyot asosiy mezonidir. Chunki u uchun, inson bu oy ostidagi dunyoda o'z maqsadiga ega bo'lgan, eng mukammal mavjudotdir. Bedil gumanizmi o'zining ijtimoiy ahamiyati bo'yicha oliy axloqiy kategoriya hisoblanadi. Mutafakkir o'z diqqat-e'tiborini, asosan, inson shaxsiyatining axloqiy mazmuniga qaratgan, uning insonparvarlik konsepsiyasining markazida inson turadi.

Darhaqiqat, shuni aytish mumkinki har bir davrda yashagan faylasuflar ijodiga, o'sha davr ruhiyati ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shunday ekan, Bedilning insonparvarlik g'oyalariga u yashagan davr ta'sir qilgan. U podshohlar o'rtasidagi urushlar, ayniqsa Akbarshohning vorislari o'rtasida bo'lgan

kelishmovchiliklar, hamda ruhoniylarning o'z manfaatlari yo'lida amallardan foydalanishlariga guvoh bo'lgan.

Bedil faylasuf va ilg'or mutafakkir bo'lganligi uchun yuqori toifadagi amaldorlarning boylik orttirishi, buzuqchiligi va axloqsizligi hamda oddiy dehqonlar va hunarmandlarga nisbatan adolatsizligi va ularni xo'rlatishlarini jim turib kuzata olmagan. U bo'layotgan nohaqsizliklarni to'g'ridan-to'g'ri siyosiy harakatlarning ishtirokchisi bo'lmagan, ammo jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarni, yuqorida aytib o'tilgan illatlarni o'z asarlarida tanqid qilgan. Ya'ni:

“Dunyoda odamgarchilikni bilmaydigan arbobdan madad kutib, umringni zoye o'tkazma” deb nasihat qiladi. O'z faoliyatida xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni teran sezib, adolat, osoyishtalik, yurt tinchligi bo'lishini orzu qilgan:

Agar qilcha nizo bo'lsa odamda,
Yo'qolur osoyish, tartib olamda.
Yuz xumda tiniq sut bo'lsa, barini –
Achitar nim tomchi sirka bir damda”.

Bedil insonni insoniylik tamoyillariga amal qilishini, shu dunyodagi ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan haqqini himoya qilgan, shaxs erkinligi va adolatli jamiyat tuzilmasini qo'llab-quvvatlagan. Shuni aytib o'tish joizki, u inson taqdirini irfon orqali tushuntirishga o'tgan, insonning maqsadi ilohiyini bilish va bu o'z-o'zini bilish orqali amalga oshadi, deya e'tirof etadi.

“Muallim as-Soniy” – “Ikkinchi muallif” unvoniga sazovor bo'lgan Farobiy o'zining “Fozil odamlar shahri” asarida adolatli, fazilatli jamiyat, davlatni demokratik boshqarish to'g'risidagi fikrlarni ilgari surgan. Mutafakkir “adolatli ideal jamiyatida kishilarning samarali mehnatiga, ilm sohiblariga, ularning aql zakovatiga, fazilatli axloq odobiga, hayotiy tajribasiga yuksak baho beradi. Davlat boshliqlarini fuqarolarning o'zlari saylaydilar. Agar saylangan boshliqlar xalq manfaatlariga zid harakat qilsalar, ular o'z amal mansablaridan chetlashtiriladi. Ideal davlat arboblari o'z faoliyatlarida adolat teng huquqlilik, fuqarolar manfaatlarini ko'zlab ish tutadilar” deya e'tirof etadi.

Bedil asarlarida insonparvarlik, inson erkinligi, inson tafakkurining hurligi keng o'rin olgan. Bedil o'z asarlarida, insondagi makr, hiyonat, qalloblik, ochko'zlik, xasislik, kibr kabi illatlar fosh qilingan va bu illatlardan o'zi ham ko'p jabrlar ko'rgani e'tirof etib o'tilgan. Mutafakkir asarlarida, insonni Hazrat, deya ulug'laydi va asarlarida: “Har kimki, Hazrat Insonni sajdaga loyiq demasa – u ma'lundir”, - deya hayqiradi.

XULOSA

Mirzo Bedil dunyoqarashida insonparvarlik muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega. Mutafakkirning ilg'or g'oyasi shundaki, inson olamning markazidir. Bedil e'tirof etishicha, har bir inson uning ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar o'z taqdiri va qilmishlari uchun ma'suldir.

Bedil insonparvarlik g'oyalarining asosiy xususiyatlari tarkibiga, bag'rikenglik, hamjihatlik, ahillik, mehr oqibatlilik, o'zaro yordam berish, rahmdillik va mehr-shavqat kabi insoniy fazilatlar kiradi. Bu esa buyuk mutafakkir g'oyalari va merosining bizning davrimizdagi dolzarbligidan dalolat beradi.

Mirzo Bedil aytganidek, ilm-hunar egallab, ongli mehnat qilmaguncha “kishi yuziga iqbol eshigi ochilmaydi”.

Insonning qiymati emas siymu zar,
Insonning qiymati ilm ham hunar.

Demak, mustaqillik tufayli o'rganish, tahlil etish ajdodlarimiz ma'naviy merosini chuqur o'rganish bizning muqaddas burchimizdir. O'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bedil Mirzo Abdulqodir. Ruboiylar.// Shoislom Shomuhamedov tarjimalari.- Toshkent, 1986, - 52 bet
2. Губин В. Некрасова Е. Философская антропология. Москва, 2000.-С.44.
3. Муминов И. М. Философские взгляды Мирзы Бедия. – Ташкент, 1957, -75 бет
4. Shodiyev, J. J. (2020). U THE QUESTION OF HUMAN DESTINY AND FREE IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF OMAR KHAYYAM. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(2), 197-202.
5. Shodiev Jahongir Jurakulovich. Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. *International Engineering Journal For Research & Development* 2020/4/16.
6. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 1160-1164.

7. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/ Urganch – 3.2023. 19-21.
8. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING AND MENTAL DEVELOPMENT IN IMPROVING HUMAN DEVELOPMENT AND VALUE. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(9), 251-261.
9. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN INCREASE OF HUMAN VALUES. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 616-625.
10. Jurakulovich, S. J. (2023). PHILOSOPHICAL VIEWS OF SAGES ON HUMAN VALUES AND GLORIFYING HIM. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 2(16), 229-238.
11. Shodiev, J. J. (2023, June). ZNACHENIE ISTORICHESKOGO MЫSHLENIYA V SOZDANII FUNDAMENTA TREGO VOZROJDENIYA I YEKO ZNACHENIE V UKREPLENII CHELOVECHESKIX SENNOSTEY. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15, pp. 124-130).
12. Jurakulovich, S. J. (2022). AGAINST IGNORANCE-FIGHTING WITH ENLIGHTENMENT THE MAIN CRITERIA IN IMPROVING HUMAN VALUE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 1160-1164.
13. Jurakulovich, S. J. (2022). ATTITUDE TO HUMAN DIGNITY IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS DYNASTY. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 43-47.
14. Shavqingni yod etib (g'azal va ruboiylar). Mirzo Bedil// Sh. Shomuhamedov tarjimalari - Toshkent, Gafur Gulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2005, - 77 bet
15. Davronov Z. Falsafa. O'quv qo'llanma – Toshkent, Iqtisod – Moliya, 2006, - 150 bet
16. Nazarov Q. O'zbek falsafasi. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013, - 110 betlar
17. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent, O'zbekiston, 2018, 2 tom, - 65 bet
18. O'zbekiston respublikasi Prezidentining farmoni “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”. [https://lex.uz/uz/docs/5841063 //](https://lex.uz/uz/docs/5841063//)